



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-sentabr*



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: 74 228-30-57***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosati boshqaruvida to'g'ri qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 543 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 443 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 18 107,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 109,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 559,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 125,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 16 547,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 748,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 113,5 %) tashkil etdi.

| | Jami, mlrd. so'm | 2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda |
|-------------------------|---------------------|--|
| Andijon Viloyati | 18 107,5 | 109,0 |
| Andijon sh. | 5 122,7 | 110,8 |
| Xonobod sh. | 128,6 | 112,1 |
| <i>tumanlar</i> | | |
| Oltinko'l | 1 115,6 | 105,8 |
| Andijon | 1 415,3 | 108,3 |
| Baliqchi | 1 469,8 | 109,4 |
| Bo'ston | 256,3 | 107,9 |
| Buloqboshi | 388,6 | 108,8 |
| Jalaquduq | 396,7 | 106,8 |
| Izboskan | 545,6 | 113,7 |
| Ulug'nor | 283,3 | 108,6 |
| Qo'rg'ontepa | 706,4 | 111,7 |
| Asaka | 1 532,9 | 109,2 |
| Marhamat | 570,7 | 105,1 |
| Shahrixon | 1 721,9 | 109,2 |
| Paxtaobod | 668,1 | 107,9 |
| Xo'jaobod | 893,4 | 102,8 |


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (10,8 %), Xonobod shahri (12,1 %), Izboskan (13,7 %), Qo'rg'ontepa (11,7 %), Baliqchi (9,4 %) va Asaka (9,2 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-sentabr)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 110,4 % ni tashkil qildi.

2023-2024- yillarda chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida o'sish sur'ati **109,0** % ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri 28,3 % bilan 5 122,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Xonobod shahri 0,7 % bilan 128,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 16 547,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 7,7 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 91,4 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 25,2 % ga o'sdi va 1 559,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 8,6 % ulushiga to'g'ri keldi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (99,1 %), Qo'rg'ontepa (98,8 %), Shahrixon (98,5 %), Marhamat (97,7 %) va Xo'jaobod (97,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (16,9 %), Izboskan (9,4 %), Jalaquduq (7,5 %) tumanlarida kuzatildi.



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



Andijon sh.

10 553,6

Xonobod sh.

2 788,9

Oltinko'l

5 780,4

Andijon

4 903,9

Baliqchi

6 760,6

Bo'ston

3 260,9

Buloqboshi

2 520,4

Jalaquduq

1 982,7

Izboskan

2 121,1

Ulug'nor

4 426,1

Qo'rg'ontepa

3 046,3

Asaka

4 285,5

Marhamat

3 040,4

Shahrixon

5 265,6

Paxtaobod

3 178,3

Xo'jaobod

7 389,9

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 5 294,6 ming. so'm (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan (106,7 %) ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (10 553,6 ming so'm), Xo'jaobod (7 389,9 ming so'm) va Baliqchi (6 760,6 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-sentabr), mlrd. so'mda




Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan, savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

| | Jami, mlrd. so'm | 2024- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda |
|-------------------------|------------------------|---|
| Andijon viloyati | 2 748,3 | 113,5 |
| Andijon sh. | 654,1 | 119,6 |
| Xonobod sh. | 11,9 | 3,2 b. |
| <i>tumanlar :</i> | | |
| Oltinko'l | 46,0 | 112,3 |
| Andijon | 64,6 | 91,7 |
| Baliqchi | 143,3 | 99,4 |
| Bo'ston | 25,5 | 112,1 |
| Buloqboshi | 102,1 | 121,2 |
| Jalaquduq | 78,5 | 100,2 |
| Izboskan | 40,4 | 128,5 |
| Ulug'nor | 81,2 | 100,7 |
| Qo'rg'ontepa | 199,4 | 133,5 |
| Asaka | 347,9 | 136,8 |
| Marhamat | 143,9 | 112,6 |
| Shahrixon | 517,8 | 109,9 |
| Paxtaobod | 188,2 | 89,1 |
| Xo'jaobod | 103,4 | 98,6 |


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-sentabr)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-sentabr)



Andijon viloyati bo'yicha 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 748,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 113,5 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 233,1 mlrd. so'mni (118,6 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 515,2 mlrd. so'mni tashkil etdi (124,8 %).

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 1 233,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (414,1 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

| | | |
|---|--|---|
| <p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>414,1 mlrd. so'm</p>  <p>33,6 %</p> | <p>Non va non mahsulotlari</p> <p>271,2 mlrd. so'm</p>  <p>22,0 %</p> | <p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>117,1 mlrd. so'm</p>  <p>9,5 %</p> |
| <p>Tovuq go'shti</p> <p>32,9 mlrd. so'm</p>  <p>2,7 %</p> | <p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>53,4 mlrd. so'm</p>  <p>4,3 %</p> | <p>Tuxum</p> <p>37,3 mlrd. so'm</p>  <p>3,0 %</p> |
| <p>Ziravorlar</p> <p>37,9 mlrd. so'm</p>  <p>3,1 %</p> | <p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>23,9 mlrd. so'm</p>  <p>1,9 %</p> | <p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem-xashak</p> <p>6,6 mlrd. so'm</p>  <p>0,5 %</p> |
| <p>Tuzlamalar</p> <p>22,2 mlrd. so'm</p>  <p>1,8 %</p> | <p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>16,2 mlrd. so'm</p>  <p>1,3 %</p> | <p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>200,3 mlrd. so'm</p> <p>16,2 %</p> |

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 1 515,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi 1 270,8 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar – 223,0 mlrd. so'mni, otlar – 13,2 mlrd. so'mni, quyon va parrandalar – 8,2 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

| | | |
|---|---|--|
| <p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>781,4 mlrd. so'm</p>  <p>51,6 %</p> | <p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>182,1 mlrd. so'm</p>  <p>12,0 %</p> | <p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>307,2 mlrd. so'm</p>  <p>20,3%</p> |
| <p>Qo'ylar</p> <p>218,2 mlrd. so'm</p>  <p>14,4 %</p> | <p>Otlar</p> <p>13,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,9 %</p> | <p>Echkilar</p> <p>4,8 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p> |
| <p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>5,7 mlrd. so'm</p>  <p>0,4 %</p> | <p>Tovuqlar</p> <p>1,7 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p> | <p>Quyonlar</p> <p>0,5 mlrd. so'm</p>  <p>0,03 %</p> |
| <p>Qushlar</p> <p>0,3 mlrd. so'm</p>  <p>0,02%</p> |  |  |

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 275 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 273 tani tashkil qildi.

| | Jami mlrd. so'm | 2023- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda |
|-------------------------|--------------------|---|
| Andijon viloyati | 8 441,5 | 111,8 |
| Andijon sh. | 155,2 | 108,4 |
| Xonobod sh. | 2,9 | 106,2 |
| <i>tumanlar :</i> | | |
| Oltinko'l | 15,2 | 106,2 |
| Andijon | 23,9 | 105,9 |
| Baliqchi | 4,1 | 106,7 |
| Bo'ston | 1,7 | 104,6 |
| Buloqbo'shi | 3,2 | 107,7 |
| Jalaquduq | 4,3 | 108,6 |
| Izboskan | 10,2 | 108,1 |
| Ulug'nor | 4,9 | 106,5 |
| Qo'rg'ontepa | 14,4 | 106,8 |
| Asaka | 13,8 | 108,1 |
| Marhamat | 7,8 | 109,2 |
| Shahrixon | 44,4 | 123,8 |
| Paxtaobod | 10,9 | 107,5 |
| Xo'jaobod | 6,6 | 108,7 |

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 8 441,5 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 111,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 88,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

| | Hajmi, mlrd. so'm | Ulushi, foizda |
|-------------------------|------------------------------|---------------------------|
| Andijon viloyati | 4 798,9 | 100,0 |
| Andijon sh. | 3 364,2 | 70,1 |
| Xonobod sh. | 0,6 | 0,01 |
| <i>tumanlar :</i> | | |
| Oltinko'l | 374,8 | 7,8 |
| Andijon | 110,6 | 2,3 |
| Baliqchi | 17,3 | 0,4 |
| Bo'ston | 0,64 | 0,01 |
| Buloqboshi | 0,6 | 0,01 |
| Jalaquduq | 1,7 | 0,03 |
| Izboskan | 9,1 | 0,2 |
| Ulug'nor | 0,67 | 0,01 |
| Qo'rg'ontepa | 4,8 | 0,1 |
| Asaka | 433,4 | 9,0 |
| Marhamat | 4,3 | 0,1 |
| Shahrixon | 12,8 | 0,3 |
| Paxtaobod | 0,9 | 0,02 |
| Xo'jaobod | 462,6 | 9,6 |


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Andijon shahri (3 364,2 mlrd. so'm), Oltinko'l (374,8 mlrd. so'm), Asaka (433,4 mlrd. so'm) va Xo'jaobod (462,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 4 798,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 150,9 % ga ortdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 2 342,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 60,1 % ga o'sdi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 2 456,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 43,0 % oshdi) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 8 182,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,1 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 7 678,8 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 93,8 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 615 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 584 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Xonobod shahri (23,0 b.), Marhamat (3,4 b.) va Shahrixon (2,8 b.), tumanlarida kuzatildi.

| | Jami mlrd. so'm | 2023- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda |
|-------------------------|--------------------|---|
| Andijon viloyati | 8 182,3 | 109,1 |
| Andijon sh. | 2 946,9 | 113,2 |
| Xonobod sh. | 72,8 | 113,0 |
| <i>tumanlar :</i> | | |
| Oltinko'l | 210,4 | 100,9 |
| Andijon | 492,1 | 95,7 |
| Baliqchi | 493,4 | 109,8 |
| Bo'ston | 46,3 | 104,7 |
| Buloqboshi | 103,8 | 113,0 |
| Jalaquduq | 53,9 | 102,7 |
| Izboskan | 255,0 | 108,9 |
| Ulug'nor | 97,4 | 113,4 |
| Qo'rg'ontepa | 178,2 | 117,2 |
| Asaka | 179,9 | 99,2 |
| Marhamat | 74,2 | 134,4 |
| Shahrixon | 611,6 | 98,4 |
| Paxtaobod | 104,0 | 109,9 |
| Xo'jaobod | 160,9 | 112,6 |